



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
O‘ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI HAMDA
YEVROPA VA TURKIY TILLAR KAFEDRASI**



**TASHQI SIYOSIY VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR UCHUN
KADRLAR TAYYORLASHDA TIL TA’LIMI VA TARJIMA MASALALARI**

**(ЯЗЫКОВОЕ ОБУЧЕНИЕ И ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДА ПРИ
ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ ДЛЯ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ И
ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ) MAVZUSIDAGI XVI
AN’ANAVIY ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

TO‘PLAMI

2026-YIL 28-MART

TOSHKENT – 2026



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası hamda Yevropa va turkiy tillar kafedrası tomonidan 2026-yil 28-martda o‘tkazilgan **“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026–yil iyundagi majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami // – Toshkent: JIDU, 2026. – 275 bet.

Mas’ul muharrir:

O‘zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent
Yevropa va turkiy tillar kafedrası mudiri,
dotsenti, f.f.n
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim ofisi boshlig‘i, s.f.n.

M.Abduraxmanova

V.Mamatkasimova

M. Siddiqova

Taqrizchilar:

G.S. Kurbonova – O‘zMU Fransuz filologiyasi kafedrası professori v. b., (DSc)
A.X.Aripova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat–noshirlik guruhi:

Sh. Sh.Xudaykulova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsent v.b., f.f.f.d.(Phd)

Sh. U.Normatova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

MUNDARIJA

<u>SUN’IY INTELLEKT TIL TA’LIMIDA: CHATGPT IMKONIYATLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING METODIK YO’LLARI</u>	7
SH.U.NORMATOVA (JIDU)	
<u>NEMIS TILI TA’LIMIDA MADANIY KOMPONENTNI RIVOJLANTIRISHDA ADABIYOTNING ROLI</u>	13
G.R.ASATOVA (JIDU)	
<u>МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЮРИСПРУДЕНЦИИ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО ЮРИСТА</u>	19
Н.Э.ШАРИПОВА (УМЭД)	
<u>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IKKINCHI XORIJIIY TILNI O’QITISH SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR</u>	27
K.Q.ISTAMOVA (JIDU)	
<u>O’ZBEKISTONDA CHET ELLIKLARGA TURK TILINI O’QITISH USULLARI VA TA’LIM JARAYONIDA MUAMMOLAR</u>	32
N.SH.XODJAYEVA (JIDU)	
<u>O’ZBEK TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BADIY MATNDAN FOYDALANISHNING YANGICHA USULLARI</u>	43
M.X.SADULLAYEVA (JIDU)	
<u>ADABIYOT DARSLARIDA TABIAT TASVIRIGA OID MATNLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O’QITISH</u>	49
M.F.FOZILOVA (O’zDJTU)	
<u>DIPLOMATIK MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MADANIY RESURSLARNI O’RGATISHNING AHAMIYATI</u>	58
M.D.ABDURAXMANOVA (JIDU)	
<u>TALABA–YOSHLARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY USLUB VA MILLIY SHE’RIYATNING O’RNI</u>	64
SH.S.XUDAYKULOVA (JIDU)	
<u>К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО–КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ–МЕЖДУНАРОДНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	70
Г.М.РАХМАТУЛЛАЕВА (УМЭД)	



<u>O'ZGARUVCHI DUNYODA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARI</u>	76
A.X.ARIPOVA (JIDU)	
<u>QADRIYATLAR VOQEALANISHINING DISKURSIV MODEL</u>	83
G.R.KOMILOVA (ToshDO'TAU)	
<u>ЯЗЫКОВАЯ ПОДГОТОВКА КАК ФАКТОР УСПЕХА В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПОЛИТИКЕ</u>	91
A.B.ATABEKOVA (УМЭД)	
<u>LOTIN TILINING DIPLOMATIYA SOHASIDA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI</u>	95
SH.A.XASANOVA (JIDU)	
<u>O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA MILLIY REALIYALARNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI</u>	102
D.D.SAYFULLAYEVA (JIDU)	
<u>ДИСКУРСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	105
B.B. МЯКОТА (УМЭД)	
<u>ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	112
T.D.ПОЛАТОВА (УМЭД)	
<u>СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	120
P.Ш.АБДУМУМИНОВА (УМЭД)	
<u>NEMIS TILI YO'NALISHI TALABALARINING MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID BILIMLARINI BADIY MATNLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI</u>	126
A.P.NARMATOVA (JIDU)	
<u>РОЛЬ ГЛАГОЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ</u>	130
Ю.Б.ЮЛДАШБАЕВА (УМЭД)	
<u>ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLARNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI</u>	134
M.RASULOVA (ToshDO'TAU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA TIL ME'YORI VA VARIANTLILIK</u>	142
M.M.ABIDOVA (O'zMU MAGISTRANTI)	



<u>DAVLAT TILI “YUMSHOQ KUCH” QUROLI SIFATIDA</u>	151
S.D.SALIXOVA (JIDU TALABASI)	
<u>GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA HUQUQIY NEOLOGIZMLAR VA ULARNING QO‘LLANISHI</u>	156
L.M.TURSUNOVA (JIDU TALABASI)	
<u>FERDINAND DYUSHENNING “QAMAR” ROMANINI TARJIMA QILISHDA MADANIY EKVIVALENTLIK MASALALARI</u>	162
V.A.MAMATKASIMOVA (JIDU)	
<u>CHET TILINI O‘QITISHDA “HA” VA “YO‘Q” SO‘Z MA‘NOLARINING BERILISHI XUSUSIDA</u>	167
H.K.IMAMOVA (JIDU)	
<u>INSON TANA TAJRIBASI VA UNING MAQOLLARDA AKS ETISHI</u>	172
Q.N.NAZAROV (JIDU)	
<u>ISPAN TILIDA REKLAMA MATNLARIDA LINGVOKULTURAL KODLARNI O‘RGANISH</u>	180
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>VIRTUAL TA‘LIM MUHITI ASOSIDA ISPAN TILINI O‘QITISHNING INNOVATSION MODELLARI</u>	185
N.K.XAYRULLAYEVA (JIDU)	
<u>ПЕЙОРАТИВНОСТЬ, ВЫРАЖЕННАЯ ПОСРЕДСТВОМ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ</u>	193
M.K.ZARIPOVA (TerGU)	
<u>МОТИВАЦИЯ И ВАЛЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОРЫ РАСШИРЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ «BEHAVIOUR / ПОВЕДЕНИЕ»</u>	199
L.A.ABDULLAEVA (UMED)	
<u>ISPAN TILIDAGI ILMIY MATNLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TERMINOLOGIK MOSLIK VA ANIQLIK</u>	205
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>NAVIGATING THE INTERPLAY OF QUALITY EDUCATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: STRATEGIC IMPERATIVES AND TECHNOLOGICAL INNOVATIONS IN UZBEKISTAN’S PEDAGOGICAL LANDSCAPE</u>	211
N.X.RAXIMOVA, B.A.UMIRZAKOVA (UWED)	
<u>TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL MATN TAHLILI TEXNOLOGIYALARI</u>	216
O.Q.MO‘MINOVA (O‘zDJTU)	



<u>ZAMONAVIY TA’LIM SHAROITIDA O’ZBEK TILINI O’QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</u>	222
F.R.AZIZOVA (JIDU)	
<u>СТОРИТЕЛЛИНГ КАК ФОРМА ЦИФРОВОГО НАРРАТИВА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ</u>	227
A.C.KALBAEV (УМЭД)	
<u>TALABALAR TARJIMA FAOLIYATINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH METODLARI</u>	233
N.F.BABAMURODOVA (O’zDJTU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>SUN’IY INTELLEKT VA YOSHLARNING SIYOSIY ISHTIROKI: RAQAMLI DEMOKRATIYA SHAROITIDA YANGI TENDENSIYALAR</u>	239
S.K.QO’SHIYEVA (УМО’IKTI TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ИНТЕГРАЦИЯ ПОДГОТОВКИ К DELF В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД</u>	247
C.Ю.САЙДАЗИМОВА (УМЭД)	
<u>DONALD J. TRUMPNING INAUGURATSIYA NUTQI: SIYOSIY DISKURS VA TARJIMA STRATEGIYALARI</u>	255
A.R.ABDULLAYEV (JIDU)	
<u>RAQAMLI KORPUS TILSHUNOSLIGI VA SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA O’ZBEK TILI: MILLIY KORPUSNI TAKOMILLASHTIRISH VA SINXRON TARJIMA TEXNOLOGIYALARI</u>	262
SH.J.JAHONOV (JIDU TALABASI)	
<u>РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	269
H.G. БУКРЕЕВА (УМЭД)	

LOTIN TILINING DIPLOMATIYA SOHASIDA QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

SH.A.XASANOVA (JIDU)

Annotatsiya: Ushbu maqola lotin tilidan o‘zlashgan diplomatik terminlarning diplomatik matn va muloqotlarda qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganadi. Lotin terminlari diplomatiyaning universalligi, aniqligi, betarafligi, tarixiy uzluksizligi va yuqori uslubini ta’minlashdagi rolini tahlil qiladi. Ular xalqaro munosabatlarda noto‘g‘ri tushunishni oldini olish, hujjatlashtirishni soddalashtirish, davlat imidjini mustahkamlash va evfemizmlar sifatida ishlatilish kabi afzalliklarini ko‘rib chiqadi. Misollar orqali terminlarning samaradorligi va xalqaro standartlarga mosligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: lotincha terminlar, diplomatik muloqot, diplomatiya, xalqaro huquq, efemizmlar.

Bizga ma’lumki, diplomatiya sohasi xalqaro munosabatlarning muhim yo‘nalishi sifatida o‘ziga xos terminologiyaga ega bo‘lib, bu terminlarning ayrimlari lotin tilidan kelib chiqqan. Lotin tili qadimgi Rim davridan boshlab ma’muriy, huquqiy va diplomatik sohalarda asosiy til sifatida xizmat qilgan va ko‘pgina diplomatik hujjatlarda va matnlarda keng qo‘llanilib kelingan. Lotin tilidan kelib chiqqan diplomatik terminlardan foydalanish ularning xalqaro xarakteri, aniqligi va mazmunliligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu xalqaro munosabatlarda aniqlikni ta’minlaydi. Ushbu terminlar diplomatiyaning uzoq tarixini, uning yuqori uslubini va noaniqlikdan qochish uchun aniq so‘zlardan foydalanish zarurligini aks ettiradi, shuningdek, davlat imidjiga ta’sir qiladi.

Bundan tashqari, lotin tilidagi diplomatik terminlar ko‘plab mamlakatlar diplomatlari uchun tushunarli bo‘lib, muzokaralar olib borish va hujjatlar tuzishni osonlashtiradi. Ular diplomatiya, huquq, fan va boshqa sohalarda

o‘zining universalligi va keng tan olinishi bilan muhim rol o‘ynaydi. Ularning qo‘llanilishi bir qancha omillarga bog‘liq: Masalan,

1) bir xillik va aniqlik – ad hoc – (ushbu holat uchun), **status quo** – (mavjud holat) yoki **pro bono** – (bepul, umumiy manfaat uchun) kabi lotin terminlari turli tillar va madaniy kontekstlarda bir xil tushuniladigan aniq ma’nolarga ega bo‘lib, tarjima paytida noto‘g‘ri tushunish xavfini kamaytiradi;

2) tarixiy uzluksizlik – lotin tili Rim imperiyasi, o‘rta asrlar ilmi, cherkov va Yevropa diplomatiyasining tili bo‘lgan. Ko‘pgina xalqaro shartnomalar, huquqiy hujjatlar va ilmiy asarlar tarixan lotin tilida tuzilgan, bu uning terminlarini xalqaro muloqot uchun standart sifatida mustahkamladi;

3) betaraflik – lotin tili “o‘lik” til bo‘lib, zamonaviy millat yoki siyosiy kuch bilan bog‘lanmaganligi sababli xalqaro hujjatlar va muzokaralar uchun betaraf asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, **veto** – (ta’qiq) yoki **consensus** – (kelishuv) kabi terminlar milliy kontekstdan xoli va universal qabul qilinadi;

4) maxsus sohalarda keng qo‘llanilishi – lotin terminlari xalqaro huquqda **jus cogens** – (majburiy norma), diplomatiyada **persona non grata** – (nomaqbul shaxs) va boshqa fanlarda faol ishlatiladi, bu turli mamlakatlardan kelgan mutaxassislarining o‘zaro muloqotini osonlashtiradi;

5) hujjatlashtirishni soddalashtirish – xalqaro shartnomalar, BMT rezolyutsiyalari yoki kontraktlarda lotin terminlaridan foydalanish ixcham va bir ma’noli iboralarni yaratishga yordam beradi. Masalan, **force majeure** – (o‘zgarmas kuch) iborasi mas’uliyatdan ozod qiluvchi holatlarni uzoq tushuntirishlar o‘rniga qisqa ifodalaydi;

6) madaniy va ta’limiy ahamiyat – lotin terminlarini bilish ko‘pincha bilimdonlik belgilari sifatida qaraladi, bu rasmiy yozishmalar va muzokaralarda ulardan foydalanishni obro‘li qiladi va klassik lotin tili bilan bog‘liq madaniy merosni saqlashga yordam beradi. Shunday qilib, lotin terminlarining

universalligi ularni xalqaro amaliyotda samarali va aniq muloqot uchun muhim vosita sifatida ko’rsatadi.

Shuningdek, diplomatik tilni to’g’ri talqin qilish uchun til o’ta aniqlikni talab qiladi. Lotin terminlari yuqori darajadagi aniqlikka ega bo’lib, fikrlarni aniq va ortiqcha iboralarsiz ifodalashga yordam beradi. Ularning aniqligi va bir ma’noliligi diplomatik tilida asosiy afzallik bo’lib, muloqotning samaradorligini ta’minlaydi. **Masalan, *casus belli***– (*urush uchun sabab*), ***de facto*** – (amalda) yoki ***de jure***– (huquqiy jihatdan) kabi terminlar qat’iy belgilangan ma’nolarga ega bo’lib, ikkilanishni istisno qiladi. Zamonaviy tillardagi terminlar madaniyat yoki kontekstga qarab turli ma’nolarga ega bo’lishi mumkin, lekin lotin iboralari universaldir – ***quid pro quo*** (*xizmat evaziga xizmat*) iborasi o’zaro almashinuv g’oyasini har qanday mamlakatda tushunarli qiladi. Xalqaro huquq va diplomatiya hujjatlarida lotin terminlari maxsus huquqiy tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi, masalan, ***pacta sunt servanda***– (*shartnomalar bajarilishi kerak*) fundamental prinsip sifatida qo’shimcha tushuntirishlarga ehtiyoj sezdirmaydi.

Shu bilan birga, lotin terminlari matn hajmini qisqartirib, uning mazmunini to’yinganligini saqlaydi – ***mutatis mutandis***– (*kerakli o’zgartirishlar bilan*) iborasi kontekstga mos ravishda qo’llaniladigan shartlarni uzoq tushuntirish o’rniga ishlatiladi. Lotin tili tirik til sifatida rivojlanmaydi, shuning uchun uning terminlari semantik o’zgarishlarga uchramaydi, bu esa ***ad infinitum*** (*abadiy*) kabi terminlarning uzoq muddatli xalqaro shartnomalarda doimiy tushunilishini kafolatlaydi. Ushbu terminlardan foydalanish muzokara ishtirokchilarining professionalligi va malakasini ta’kidlaydi, chunki ularni bilish ma’lum darajadagi ta’lim va xalqaro amaliyot bilan tanishlikni talab qiladi.

Ma’lumki, diplomatiyaning uzoq tarixi lotin tiliga asoslanadi, chunki uning ko’plab terminlari antik davr va o’rta asrlarda shakllangan. Lotin tili Rim

imperiya­si­ning tili bo‘lib, unda zamonaviy diplomatiya, huquq va davlat boshqaruvi asoslari shakllangan [Вылажгина, 2015: 7]. **Senatus** – (*senat*) yoki leges (qonunlar) kabi terminlar diplomatiya leksikasining asosini tashkil etdi va keyinchalik Yevropada tarqaldi. O‘rta asrlarda lotin tili katolik cherkovi, fan va xalqaro munosabatlar tili bo‘lib qoldi. Tinchlik shartnomalari yoki **papa bullalari** – (*bu katolik cherkovining papi tomonidan chiqariladigan rasmiy hujjat yoki farmonni bildiradi. Ular qarorlar, imtiyozlar, e’lonlar yoki muhim diniy va siyosiy masalalarni belgilaydi. "Bulla" so’zi lotincha bo‘lib, "muhr" yoki "o‘yinchoq" degan ma’noni bildiradi, chunki bu hujjatlar odatda muhr bilan tasdiqlanadi*) kabi diplomatik hujjatlari lotin tilida tuzilgan, bu **paix** – (*tinchlik*) yoki **traité** (shartnoma, lotincha **tractatus** dan) kabi terminlarni mustahkamladi. XVIII asrgacha lotin tili Yevropa diplomatiyasi va intellektual elitasining tili bo‘lib, turli mamlakatlardan kelgan vakillarga betaraf tilda muloqot qilish imkonini berdi. **Ambassadeur** (lotincha **ambactiare** – xizmat qilish) yoki **diplomatie** (lotincha **diploma** – hujjat) kabi terminlar xalqaro amaliyotning bir qismiga aylandi. Zamonaviy diplomatiya va xalqaro huquqning ko‘plab prinsiplari lotin tilida yozilgan tarixiy **pretsedent**larga asoslanadi – **uti possidetis** – (egallaganingni saqla) prinsipi Rim huquqidan kelib chiqqan bo‘lib, davlat chegaralarini belgilashda hali ham qo‘llaniladi. Lotin terminlaridan foydalanish zamonaviy diplomatiyani uning tarixiy ildizlari bilan bog‘laydi. Shuningdek, muzokaralar va hujjatlarga tantanavorlik va muhimlik beradi.

Shuni ta’kidlash joizki, lotin terminlaridan foydalanish davlat imidjiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, uning professionalligi, madaniy chuqurligi va xalqaro standartlarga sodiqligini ta’kidlaydi [Хайдарова, 2025:178]. **Modus operandi** – (*harakat usuli*) yoki **sine qua non** – (zaruriy shart) kabi terminlar xalqaro diplomatiya leksikasining bir qismidir. Ulardan to‘g‘ri foydalanish diplomatlarning yuksak malakaga ega ekanligini nomoyon qiladi, bu esa

davlatning global siyosatdagi ishonchli ishtirokchi sifatidagi obro’sini mustahkamlaydi. Lotin so’zlaridan foydalanish davlatni Yevropa va jahon diplomatiyasining boy merosi bilan bog’laydi, mamlakatning tarixiy an’analarni hurmat qiluvchi va chuqur madaniy ildizlarga ega ekanligi tasavvurini yaratadi. Lotin terminlari milliy tillar bilan bog’liq emasligi sababli betaraf bo’lib, davlatning xalqaro munosabatlarda xolislik va tenglikka intilishini ko’rsatadi. Rasmiy hujjatlarda lotin so’zlaridan foydalanish xalqaro standartlar va normalarni bilishni ko’rsatadi, bu BMT yoki JST kabi tashkilotlar ishonchini oshiradi. Lotin terminlarini bilish diplomatik korpusning yuqori ta’lim va bilimdonlik darajasini ko’rsatadi, bu davlat imidjiga ijobiy ta’sir qiladi.

Bilamizki, diplomatik hujjatlar va yozishmalar diplomatik uslub bilan ajralib turadi, lotin tilidan kelib chiqqan terminlar esa ularga rasmiyatchilik va tantanavorlik bag’ishlaydi. ***Ex officio*** – (***lavozim bo’yicha***), ***inter alia*** – (***boshqa narsalar qatorida***) yoki ***nota bene*** – (***diqqat qiling***) kabi terminlar matnlar va chiqishlarga alohida tantanavorlik beradi, bu diplomatiya muloqotining protokoliga mos keladi. Lotin so’zlari global diplomatiya leksikasining bir qismi sifatida xalqaro standartlarga moslikni ko’rsatadi, hujjat yoki muzokaralarning obro’sini oshiradi. ***Per se*** (o’z-o’zidan) yoki ad ***interim*** – (vaqtincha) kabi terminlar hissiy bo’yalgan iboralardan qochishga yordam beradi, betaraf va rasmiy ohangni saqlaydi. Lotin so’zlari ko’pincha uzoq tavsiflarni almashtirib, matnni ixcham va nafis qiladi, masalan, ***casus foederis*** – (shartnomada ko’zda tutilgan holat) murakkab tushunchani qisqa va yuqori rasmiyatchilik bilan ifodalaydi. Lotin terminlari davlatlararo munosabatlarning muhimligini ta’kidlaydi, davlatning rasmiy va hurmatli muloqotga katta ahamiyat berayotganligi tasavvurini yaratadi.

Lotin terminlari diplomatik munosabatlarda bayonotni yumshatishga yordam beradigan evfemizmlar sifatida ishlatilishi mumkin. ***Persona non grata***

– (nomaqbul shaxs) kabi terminlar nozik yoki potentsial ziddiyatli g’oyalarni betaraf tarzda ifodalashga yordam beradi. Siyosiy to’g’rilikni saqlash uchun “**krizis**” o’rniga **impasse** – (chiqish yo’li yo’q holat) iborasi ishlatilishi mumkin, bunda esa kamroq hissiylik va rasmiylik mavjuddir. **Ad referendum** – (keyingi ko’rib chiqish uchun) yoki **sub silentio** – (sukut saqlab) kabi terminlar bahsli masalalarni muhokamani kechiktirish yoki ochiq ziddiyatlarsiz norozilik bildirish imkonini beradi. Lotin terminlari xalqaro kontekstda tushunarli bo’lib, tarjimaga muhtoj bo’lmagan universal evfemizmlar sifatida xizmat qiladi. **Force majeure** – (o’zgarmas kuch) mas’uliyatdan ozod qiluvchi holatlarni aniq tushuntirmasdan yumshoq tarzda ko’rsatadi. Lotin tilidagi diplomatik terminlar milliy yoki siyosiy manfaatlar bilan bog’lanishdan qochadi, bu ko’p tomonlama muzokaralarda muhimdir. “**Shartnomani buzish**” o’rniga **non adimpleti contractus** (*shartnoma bajarilmadi*) terminini ishlatilishi ayblov ohangini kamaytiradi.

Diplomatiya sohasidagi lotin terminlariga misollar: **status quo** – (*mavjud holat*) – joriy vaziyat; **ad hoc** (*ushbu holat uchun*) – maxsus, muayyan vaziyat uchun; **de facto** (*amalda*) – faktik jihatdan; **per capita** (*har bir kishi uchun*) – aholi jon boshiga; **bilateral** – (*ikki tomonlama*) – ikki tomon o’rtasidagi kabilardir. Ushbu terminlardan foydalanish diplomatiya amaliyotida standartlashtirish va professionallikni ta’minlaydi, shu bilan birga diplomatik tilni xalqaro muloqotning samarali vositasiga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, lotin tilidan o’zlashgan diplomatik terminlar aniqlik, rasmiyatchilik va universal tushunilishni ta’minlashda muhim vositadir. Ular huquqiy va faktik holatlarni farqlash, shartlarni aniqlashtirish, favqulodda vaziyatlarda tezkor muloqotni ta’minlash va muzokaralar jarayonini boshqarishda qo’llaniladi. Matnda keltirilgan misollar lotin terminlarining diplomatiya sohasida qisqa, aniq va ta’sirchan muloqot vositasi sifatida muhim

o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ushbu terminlar xalqaro munosabatlarda noaniqliklarni bartaraf etish va rasmiy kontekstni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Вылажгина А.Н. Предисловие // Латинские термины в современном международном праве: латинско–русский, русско–латинский словарь. М.: Статут, 2015. С. 4–7.
2. Хайдарова Дилафруз Закировна «История возникновения и развития дипломатической терминологической системы испанского языка» Журнал гуманитарных и естественных наук, (19 [1]), 170–178.
3. eduscol.education.fr/ – Ministère de l’Éducation nationale de la Jeunesse et des Sports – Janvier 2022
4. Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов / Д.С. Лотте. – М.: Наука, 1982. – 149 с.
5. <http://diplomaticdictionary.com/dictionary/>
6. А. В. Вслюшкова иноязычные слова в дипломатической терминологии начала XVIII века. <https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/43794/1/uz-1969-80-31-44.pdf>
7. Ф.П. Сергеев (Волгоград Иноязычные наименования дипломатических уполномоченных в русском языке (по данным памятников письменности XVII–XVIII вв.)
8. etudes-litteraires.com/langue-francaise/expressions-latines